



Talabalarga Vokal Asarlarini O'rgatish Uslublari

Ismoilova Mahbuba Ilamanovna

Shahrisabz davlat pedagogika

*Instituii, "San'atshunoslik kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

<https://orcid.org/0009-0008-2727-5238>

Методика Преподавания Вокальных Произведений Студентов

Исмаилова Махбуба Иламановна

Шахрисабзская государственная педагогика

института, «Заведующий кафедрой искусствознания,
кандидат педагогических наук, доцент

<https://orcid.org/0009-0008-2727-5238>

Methodology For Teaching Vocal Works To Students

Ismailova Mahbuba Ilamanovna

Shahrisabz state pedagogy

Institute, "Head of the Department of Art Studies,
candidate of pedagogical sciences, associate professor

<https://orcid.org/0009-0008-2727-5238>

Annotatsiya: Ushbu maqolada vokal musiqa pedagogikasining tamoyillari asosida talabalarga vokal asarlarini o'rgatish uslublarini takomillashtirish yo'llari ko'rsatilgan. Bulardan tashqari ovoz apparining tuzilishi, xususiyarlari, ovoz rezonatorlari, talabalar ovozini qo'yish metodlari va xonandalar ovozini saqlash to'g'risida fikr mulohazalar bildirilgan.



Kalit soʻzlar: Vokal ijrochiligi, xonandalik asarlari, vokal pedagogikasi tamoyillari, ovoz apparati, ashulachilik ovozi, ovoz diapazoni, sof intonatsiya, pegistrlar, rezanatorlar.

Аннотация: В данной статье показаны пути совершенствования методики обучения студентов вокальному произведению на основе принципов вокально-музыкальной педагогики. Кроме того, обсуждаются строение и особенности голосового аппарата, голосовых резонаторов, способы записи голоса учащихя, голоса певцов.

Ключевые слова: Вокальное исполнительство, певческие произведения, принципы вокальной педагогики, голосовой аппарат, певческий голос, голосовой диапазон, чистая интонация, пегистры, резонаторы.

Abstract: This article shows ways to improve the methods of teaching vocal works to students based on the principles of vocal music pedagogy. Apart from these, the structure and features of the voice apparatus, voice resonators, students' voice recording methods, and singers' voices are discussed.

Key words: Vocal performance, singing works, principles of vocal pedagogy, voice apparatus, singing voice, voice range, pure intonation, pegistrs, resonators.

Kirish. Musiqa madaniy hayotimizda keng oʻrin tutgan va inson shaxsiyatining takomillashuvida muhim rol oʻynaydigan sanʼat turidir. Buyuk sharq allomalari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Fargʻoniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulugʻbek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Najmiddin Kavkabiy va boshqa ulugʻ bobokalonlarimiz oʻzlarining risolalarida ijrochilik sanʼati, musiqa ilmi va tarixi, cholgʻu sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari va musiqaning inson tarbiyasidagi oʻrni haqida qimmatli maʼlumotlarni bayon etib ketganlar[8.5-bet]. Musiqaning inson maʼnaviyatini shakllantirishdagi ahamiyati davlat miqyosidagi ishlardan biri ekanligi Prezidentimiz Shovkat Mirziyoyevning 2017-yil 25-dekabdagi Madaniyat va sanʼat sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bagʻishlangan nutqi, 2018-yil 28-noyabdagi “Oʻzbekiston Respublikasida milliy madaniyatni



yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarori, 2020 yil. 26-maydagi Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6000-sonli farmoni, 2022 yil 2-fevralda "Madaniyat va san'at sohasining yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha chora tadbirlar tog'risida"gi PQ112-sonli qarorlari va farmonlarida o'z ifodasini topgan.

Musiqqa san'atida bevosita ijod va mumtoz ijro allaqachon inson ruhiyati, hamda ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylangan. Vatanimizda teran bilim, keng tafakko'r, iste'dodga ega san'at sohiblarining ijodiy izlanishlari tufayli professional xonandalikning an'anaviy, akademik, hamda estrada turlari uzil-kesil shakllanib, jadal sur'atda rivojlanib bormoqda.

Inson ovozi vositasida yaralgan va aynan ovozda ijro etishga mo'ljallangan san'at namunalarining paydo bo'lishi cholg'u musiqasiga nisbatan ancha qadimiyroq. Uning tarixi juda uzoq ibtidoiy zamonlarga borib taqaladi. Biroq o'sha paytlarda musiqqa va qo'shiq kuylash ko'nikmalari kasbiy tus olmagan va xonandalik maxsus ixtisoslik sifatida hali yuzaga kelmagan edi. Markaziy Osiyoda joylashgan ko'hna davlatlarda, shahar saroylarida vujudga kelgan professional musiqqa san'atida yakkaxonlik va hamnafaslik ijro shakllari qadimdan qo'llanilgan. Ijro shakllarining oddiy ko'rinishlari mahalliy mehnatkash aholi orasida folklor musiqqa negizida, kasbiy tus olgani esa xonliklar saroyining madaniy ko'ngilochar marosimlarida ancha erta paydo bo'lgan. Xonandalik san'ati shu tariqa og'izdan- og'izga, avloddan-avlodga o'tib sayqallanib bizning davrlarimizgacha yetib kelgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Talabalarga vokal asarlarini o'rgatish uslublari haqidagi masalalarni o'rganishda quyidagi materiallar birlamchi manbaa bo'lib xizmat qildi. Professor M.N.Rizayevaning "Yosh xonanda kamoloti" nomli o'quv qo'llanmasi, I.K.Nazarenkoning turli vokal maktablari batafsil bayon etilgan «Искусство пения» («Kuylash san'ati») nomli badiiy kuylash tarixi, nazariyasi va amaliyotiga oid ocherk va materiallar to'plami, professor Sh.Pirmatovning. "Yakkaxon qo'shiqchilik" nomli darsligi, professor M.A.Xamidovning "Xonandalik san'ati" o'quv qo'llanmasi, professor



G.Muxammerdovaning “Xonandalik uslubiyoti asoslari” nomli o`quv qo`llanmasi, M.Razzoqovaning “Akademik xonandalik asoslariga kirish” nomli o`quv qo`llanmalari. Ushbu manbaalarning tahlili, ularda mavzuga, ya`ni vokal pedagogikasiga oid qimmatli materiallar borligini ko`rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarga vokal asarlarini o`rgatishning mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari, tamoyillari va vostalari mufassal o`rganildi va xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natijalar. Vokal ijrochiligi fanining boshqa aniq fanlardan farqli tomoni shundaki, u doimo turli bayram, milliy qadriyatlarimiz va zamon bilan hamohang holda olib borilishini, talabalardan uzluksiz ijodiy faoliyatni talab etadi.

Bugungi kunda oliy ta`lim muassasalari vokal ijrochiligi darslarida vokal asarlarini o`rgatish uslublarini takomillashtirib borish o`qituvchining eng muhim vazifalaridan biridir. O`qituvchisining bu vazifalarni bajarishi talabalar psixologik-fiziologik va musiqiylik xususiyatlarini yaxshi bilgan holda vokal musiqa pedagogikasining tamoyillari asosida vokal asarlarini o`rgatish usullarini samarali qo`llashga bevosita bog`liqdir.

Vokal asarlarini o`rgatish uslublarini takomillashtirish borasida professor Rizayeva Muqaddas Nishonovna vokal musiqa pedagogikasining quyidagi tamoyillarini ishlab chiqqan:

Ta`limda ketmaa-ketlik va uzluksizlik tamoyili. Ta`lim jarayonida soddadan murakkablikka asoslanib kuylash malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Badiiy-musiqa va vokal texnik tamoyillarining birligi. Kuylashda ikki muommoni bir vaqtda hal qilishga asoslangan bo`lib ashulachilik apparatida ashulachilik ovozini hosil qilish va unda kuylashni mashq qilishdan iborat.

Alohida yondoshuv tamoyili. Har bir o`quvchining psixologik-fiziologik va musiqiylik xususiyatlarini hisobga olgan holda kuylash malakalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Muntazam mukammallikka erishish tamoyili. Talabaning mustaqil ravishda shug`ullanishi, o`z ustida ishlashiga alohida e`tibor berishi ya`ni mustaqil ta`limni amalga oshirishga qaratiladi.[7. 9-bet]



Ushbu tamoyillar asosida vokal pedagogikasida o`qituvchi va talabaning birlashgan faoliyatida vokal asarlarini o`rgatish usullarini takomillashtirish uchun foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Yuqoridagi tamoyillardan foydalangan holda har bir o`qituvchi o`z uslubida darslarni tashkil etishi lozim. Musiqa murakkab psixologik- fiziologik jarayon hisoblangani bois vokal ijrochiligi darslarida vokal mashqlari va vokal asarlarini kuylash talabalarni axloqiy - estetik tarbiyasi uchun o`qitishning eng foal shakli sanaladi.

Kuylashni ixtisoslashgan darajada o`rgatish va o`rganish quyida yanada yaqqolroq ko`rinadiki, tizimli yondoshuvni, hamda ovoz organlarini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishni talab etadi. Talaba ayniqsa boshlang`ich paytlarda o`z ovozini diqqat bilan o`zi kuzata bilishi lozim. U to`g`ri nafas olishni o`rganish ustida o`ylashi, hosil bo`lgan tovushni to`g`ri anglab, yo`nalishini ko`zlab olishi, diapason ko`lamining faqat o`rta qismida mashq qilishi lozim.

Talabalarda vokal asarlarini kuylash malakalarini shakllantirish bevosita musiqiy eshitish qobiliyatining rivojlanishi bilan bog`liq. " Ovoz apparati faqat eshitish orqali qabul qilingan hodisalarnigina uzatishi mumkin. Ashulachilik apparati bilan quloq yaxlit tizimdir. Ovoz apparati eshitish orqali nimani qabul etsa, aynan o`shani ifodalaydi. Bolalikdan eshitmaydigan kishi ovoz apparati sog`lom bo`lsa ham gapira olmaydi. Qayerda talabalarda vokal tasavvurlari to`g`ri shakllangan bo`lsa u yerda yaxshi xonandalik ovozi yetishib boradi." [5.13-bet]

Bo`lg`usi xonanda ovozini to`g`ri qo`yish, ya`ni juda nozik bo`lgan kuylash "cholg`usini" uzil-kesil shakllantirish o`qituvchi uchun nihoyatda muhim, ayni paytda eng murakkab ustozlik vazifasini tashkil etadi. Har bir ovozning sadolanishida uchraydigan turfa jilolarni alratib olish, tovush go`zalligini buzayotgan, tabiiy jarangiga to`sqinlik qilayotgan har xil murakkab tuslaridan forig` etish uchun mukammal darajadagi tinglov malakasi bo`lishi shart. Talabaning ovozini mutanosib qo`yish uchun barcha ovoz organlari, ularning anatomiyasi va fiziologiyasi bilan shu qadar yaxshi tanishib chiqish zarur.



Ovoz apparati tomoq, hiqildoq, xalqum, nafas ravog'i, ovoz pardalari bog'lamlari, rezonator va har xil mushaklardan iborat. Hiqildoq ovoz paydo qilish apparati vazifasini bajaradi. Tomoqning xalqum devorlari tomonidan nafas yo'li boshlanadi va ovoz ravog'iga taqaladi. Har bir kuylovchi erkin nafas olib ya'ni nafas tamom bo'lgandan keyin, yana nafas olib o'sha tovushni kuylashni davom ettiradi. Bu holatda umumiy kuychanlik va tonning aniqligi har bir talabani ovozining umumiy jaranglashda moslashishiga yordam beradi.

Ovoz yumshoq va jarangdor bo'lsa, bu ovoz tembri yaxshi hisoblanadi. Aniq barqarorlik ovozning qaltiramasligi, har bir tovushni balandlikka cho'zib tura olish qobiliyatiga egaligidadir. Ovozning chidamliligi esa charchamaslik, qiyin va katta asarlarni ijro qilishda ovozni toliqmaslik xususiyati bilan belgilanadi. Qo'shiq aytishga monand tovush ovoz pardalarining tebranishi hamda rezonatorlarning tovushni kuchlantirishi natijasida paydo bo'ladi.

Shuningdek, rezonatorlar tovush hosil qilish jarayonida o'z shaklini, hajmini artikulyatsiya apparati orqali o'zgartirib turadilar. Talaffuzning aniq yoki noaniq bo'linishi artikulyatsiya apparatining faol yoki passivligiga ham bog'liqdir. Diapazoni yuqori registr tovushlari bosh rezonator, pastki registr tovushlari esa ko'krak rezonatori deyiladi. O'rta registr tovushlarini kuylaganda aralash bosh va ko'krak registrlaridan foydalaniladi[6.10-bet].

O'zbek vokal san'atini rivojlantirish uchun avvalambor shu fan muallimlari adabiy o'zbek tilini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi shart. Talabalar ijro etishi uchun tanlab olingan namunalarning mazmun va mohiyati nimalardan iborat ekanligini izohlab tushuntirishga tez-tez zarurat tug'iladi. Nafas olish jarayonida milliy ruhni, koloritni til vositasida ham yaxshi yetkazib bera olish kerak bo'ladi.

Talabalarning ovoz apparatlariga zarar yetkazmaslik va ovozlarini saqlashning muhim sharti ovoz diapazonlarini to'g'ri aniqlash va ishchi diapazonlaridagi notalardan tashqariga chiqmagan holda vokal qo'shiq kuylash malakalarini izchilik bilan rivojlantirib borishdan iboratdir.

Ovozdan samarasiz foydalanish ovoz hosil qilish a'zolarining kasallanishiga olib k'aladi. Talabalarning o'z tanasiga quloq solishiga, uning imkoniyatlarini bilishga o'rgatish lozim. Bu o'quv jarayonini jadallashtirishga, ovoz bilan bog'liq



a'zolari asrashga o'rgatadi. Oliy o'quv yurtining namunaviy dasturi to'laqonli kasb mahoratiga ega bo'lgan mutaxassisni tayyorlashdek vazifaga yo'naltiradi. Buning uchun ishlab chiqilgan amaliy mashqlardan iborat doimiy ravishdagi mashg'ulotlar uchun tegishli miqdorda dars soatlari ajratish lozim. Kasal bo'lganda nafaqat qo'shiq aytish, balki repetitsiyada bo'lish ham tavsiya etilmaydi. Kasallik paytida tanani va umuman ovoz a'zolarini zo'riqishdan asrash kerak. Aks holda, ularni ishdan chiqarib qo'yish mumkin. Ovoz a'zolarida ro'y berayotgan o'zgarishlarni darhol o'rganish lozim. Ovozni charchashdan asrash lozim. Agar ovoz a'zolariga ortiqcha yuk tushgan bo'lsa, ovoz chiqarmaslikka intilib, ularga dam bergan ma'qul. Charchash ovozni yo'qotib qo'yguncha davom etishi mumkin. Ovoz a'zolariga ortiqcha yuk tushganda ovoz jarangdorligini yo'qotib, og'irlashib qoladi. Ovoz a'zolariga dam berish – eng yaxshi davo hisoblanadi. Yosh ovozlarni tarbiyalash va ulardan foydalanishga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur bo'ladi. Pedagog, ma'ruzachilarga uzluksiz ravishda orada 10 minut tanaffus bilan bir kunda to'rt akademik soat ishlash me'yor qilib belgilangan. Tana a'zolaridan to'g'ri foydalanish ularni kasallanishdan asraydi. Tanlovlarga shoshilinch tayyorlanish chog'ida ko'pincha kasbiy kasallik paydo bo'ladi. Bu ortiqcha jismoniy zo'riqish, asab tizimiga yuk tushganda ham ro'y beradi. Ovoz boricha qo'shiq aytib bironi hayratga solish shart emas. Qiyin asarlar va yuqori notalarda qayta-qayta qo'shiq aytish yaramaydi. Bu foyda keltirmaydi, faqat ovozni charchatib, xirqiratib qo'yadi. O'ziga xos bo'lmagan ovozda qo'shiq aytish ovoz hosil qilish tizimining buzilishiga olib keladi, zararli shartli refleksni hosil qiladi. O'quv yurtlarida mashg'ulotlar jadvalida ovozli va ovoz kerak bo'lmaydigan mashg'ulotlarni o'zaro almashtirib joylashtirilishi zarur. Konsertlar, imtihonlar bo'lib o'tayotgan kunlarda talabaga o'zini jismoniy va ruhiy jihatdan o'nglab olishi uchun ba'zi darslarga qisman qatnashmasligiga ruxsat berish mumkin.

Har bir ovoz bilan ish ko'ruvchi shaxs ovoz gigiyenasi bo'yicha eng oddiy bilimga ega bo'lishi kerak va kasb, kun tartibiga rioya qilishi zarur. Aynan shu narsa kasb madaniyatining jihatlaridan biridir, bunga oddiy tibbiy bilimlar ham kiradi.



Gigiyena qoidalariga rioya qilish va boshqalarni ham bu sohada madaniyatli bo'lishga o'rgatish lozim. Yuqoridagi ma'lumotlarni ovoz hosil qilish va uning gigiyenasi sohasidagi nuqsonlarni bartaraf etish va uning anatomiyasi haqida ma'lumotlar berish uchun ovoz bilan bog'liq mutaxassislar tayyorlaydigan o'quv yurtlari dasturlariga kiritish zarur.

San'atga sidqidildan munosabatda bo'lgan har qanday iste'dod egasi muntazam mehnat qilishdan erinmaydi. Mehnatda umrini o'tkazish uning uchun eng ma'qul imkoniyatdir. Zotan, faqat mehnat bilan barcha to'siqlarni yengib o'tish mumkinligiga ishonadi. Bunday insonlar san'atkorlik olamida juda ko'p uchraydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sof intonatsiyada kuylash, aniq idrok etib, tinglangan tovushni toza ijro etishga bog'liq. Auditoriyada turli xususiyat va qobiliyatga ega bo'lgan talabalar bo'lganligi tufayli har bir o'qituvchi o'z uslubida barcha talabalarga mos keladigan mashqlarni va vokal asarlarini kuylash usullarini qo'llashi kerak. Dars jarayonida xonandalik faoliyati ovoz sozlash mashqlaridan boshlanib, bu mashqlar talabani navbatdagi vokal asarlarini kuylash ishlariga tayyorlaydi. O'qituvchining vazifasi vokal musiqa pedagogikasining tamoyillari asosida talabalar ovoz apparatining to'g'ri yo'naltirishi sababli, vokal asarlarini o'rgatish uslublarini takomillashtirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Madaniyat va san'at sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag'ishlangan nutqi. Toshkent, 2017-yil 25-dekabr www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018-yil 3-dekabr, 48-son, 921-modda.
3. Mirziyoyev Sh.M. Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-6000-son. 2020 yil. 26-may.



4. Mirziyoyev Sh.M. “Madaniyat va san’at sohasining yanada rivojlantirish uchun qo`shimcha chora tadbirlar tog`risida”gi PQ112-sonli qarori 2022 yil 2-fevral

5. Muxammedova G. Xonandalik uslubiyoti asoslari. O`quv qo`llanma T.; 2007 y. 13-b.

6. Razzoqova M. Akademik xonandalik asoslariga kiriash. O`quv qo`llanma Toshkent, “Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2015 yil -143 bet

7.Rizaeva M. N. Yosh xonanda kamoloti. O`quv qo`llanma. Cho`lpon nashriyoti-T.:2003yil.11-bet.

8.Pirmatov Sh. Yakkaxon qo`shiqchilik. Darslik. Toshkent. “Musiqqa” nashriyoti 2011 yil -267 bet

9.Pirmatov Sh. Vokal texnikasi asoslari. O`quv-uslubiy qo`llanma Toshkent. “Musiqqa” nashriyoti 2011 yil -75 bet

10.Xamidova M.A. Xonandalik san’ati Toshkent, “San’at” jurnali nashriyoti 2009 yil.